

Shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – uslubiy nizom) shahar hududlarida ko'kalamzorlashtirish, yo'l xo'jaligi, ko'chalarni yoritish, mexanizatsiya vositalari yordamida tozalash ishlarining statistikasi hisobini yuritish imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkichlarni shakllantirish mexanizmini belgilaydi.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy – huquqiy hujjatlari, shuningdek, Birlashgan millatlar tashkilotining va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlari tajribalaridan foydalanildi.

Uslubiy nizom BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining birlashgan guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqildi.

Uslubiy nizomda respublikaning shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni qonuniy asos bo'lib hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

shahar joylari – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlari hududi;

obodonlashtirish — aholi hayoti uchun qulay va madaniy shart-sharoitlarini yaratish maqsadida hududlarni muhandislik jihatidan tayyorlash, yo'llar qurish, hududlarni tozalash, zaxini qochirish, ko'kalamzorlashtirish va irrigatsiyalash

tadbirlarini amalga oshirish, mikroiklimni yaxshilash, havo havzasi, ochiq suv havzalari va tuproqni ifloslanishdan himoya qilish, u yoki bu hududni qurilish uchun yaroqli holga keltirish va belgilangan maqsadda normal foydalanish, amalga oshiriladigan shovqinlar darajasini kamaytirish ishlarining yig'indisi;

obodonlashtirish obyektlari — ko'chalar, aylanma ko'chalar, yo'llar, markaziy maydonlar, yo'lkalar, ko'priklar, tunnellar, yo'lovchilar o'tadigan yer osti yo'llari, favvoralar, ariqlar, kanallar, daryolar, ko'llar va boshqa suv havzalarining qirg'oqlari, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini va hordiq chiqarishini qondirish uchun foydalaniladigan obyektlar (madaniyat va istirohat bog'lari, o'rmon massivlari, bog'lar, bulvarlar, xiyobonlar), tashqi yoritish, reklama pannolari, yo'l ko'rsatkichlari, portallar, peshlavhalar, drenaj (drenajning vertikal, yopiq va ochiq gorizontal, yopiq kollektori), irrigatsiya novlari tarmoqlari, tashqi yoritish tarmoqlari;

chiqindi to'plash shoxobchalari soni — bu qattiq maishiy chiqindilarni va boshqa turdagi chiqindilarni vaqtincha yig'ish va saralash uchun tashkil etilgan maxsus qo'riqlanadigan joylar soni;

chiqindi to'plash modullari — shahar hududlarida doimiy o'rnatiladigan, chiqindilarni ajratish va yig'ish uchun maxsus konteynerlarga ega tizimlar;

chiqindi konteynerlari — bu qattiq maishiy chiqindilar (QMQ) va boshqa turdagi chiqindilarni vaqtincha saqlash va tashish uchun mo'ljallangan maxsus idishlar.

2-bob. Shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari va ularni shakllantirish manbalari

3. Shahar hududlarini obodonlashtirishning asosiy statistik ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

shahar chegarasi doirasidagi shahar yerlarining umumiy maydoni;

shahar yerlari yo'l xo'jaligi (ko'chalar uzunligi, qoplama turi va ariq tizimi uzunligi);

ko'cha yoritkichlari tizimi (yoritish tarmog'i bilan ta'minlangan ko'chalar uzunligi, yoritish uskunalari soni, yoritish uskunalarini quvvati);

hududlarni mexanizatsiya vositalari bilan tozalash;

maishiy chiqindilarni zararsizlantirish joylari maydoni;

yil davomida chiqarilgan chiqindilar miqdori.

4. Shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy ko'rsatkichlarini tavsiflovchi ma'lumotlar quyidagi statistika hisobotlari va ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantiriladi:

1 kom (shahar) shakli (yillik) Shahar aholi punktlarini obodonlashtirish to'g'risida hisobot;

1 kb (kommunal) (1 kb shakliga ilova) shakli (yillik) Oqova suvlarni markazlashtirilgan holda chiqarib yuborishni, obodonlashtirish va yoritish ishlarini amalga oshiruvchi, aholiga va maishiy-kommunal ehtiyojlarga suv, issiqlik energiyasi hamda issiq suv yetkazib berish to'g'risida hisobot;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining "Tuman (shahar) yerlari va qabristonlari to'g'risida"gi ma'muriy ma'lumotlari.

3-bob. Shahar hududlarini obodonlashtirishning asosiy statistik ko'rsatkichlari

1-§. Shahar chegarasi doirasidagi yerlar hisobi

5. Shahar chegarasi doirasidagi shahar yerlari hisobi bu shahar chegarasi ichida joylashgan va shaharsozlik faoliyati uchun ajratilgan yer maydonlaridir. O'zbekistonda shahar yerlari hisobi Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida yuritiladi.

6. Shahar chegarasi doirasidagi ko'kalamzor hududlarning umumiy maydoni – bu shaharning ma'muriy hududi ichida joylashgan va yashil o'simliklar bilan qoplangan yer maydonlarining umumiy hajmini bildiradi.

7. Ko'chalar, yo'llar va tor ko'chalarning ko'kalamzorlashtirilgan hududlari uzunligi – shahar infratuzilmasida yo'l bo'ylab ekilgan daraxtlar, butalar va boshqa yashil elementlar bilan qoplangan hududlarning umumiy uzunligini o'z ichiga oladi.

2-§. Shahar yerlari yo'l xo'jaligi hisobi

8. Yo'l xo'jaligi – yo'l va yo'l infratuzilmasini loyihalash, qurish, saqlash, ta'mirlash va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi murakkab tarmoq.

Bu yo'nalishda ko'chalar uzunligi, ko'chalarning qoplama turi va ariq tizimi uzunligi ko'rsatkichlari hisobi yuritiladi.

9. Ko'chalar uzunligi – barcha turdagi avtomobil yo'llari, piyodalar yo'laklari va boshqa kommunikatsiya tarmoqlarining umumiy uzunligini ifodalaydi.

10. Ko'chalar va yo'llarning qoplama turi – bu yo'l yuzasiga yotqizilgan material turi bo'lib, transport vositalari va piyodalarning harakati uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlaydi. Qoplama turi yo'llarning sifatini, chidamliligini va foydalanish muddatini belgilaydi.

Ko'chalarning qattiq qoplamali qismlari – bu transport va piyodalar harakati uchun mustahkam va bardoshli materiallar bilan yotqizilgan yo'l yuzalaridir.

Bunday qoplamalar yo'llarning uzoq muddat xizmat qilishini, qulay harakatlanishni va xavfsizlikni ta'minlaydi.

Takomillashtirilgan qoplamali yo'llar – bu zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan va uzoq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan yo'l qoplamalari bo'lib, ular mustahkamligi, chidamliligi va harakat qulayligi bilan ajralib turadi.

3-§. Ko'cha yoritkichlari tizimi ko'rsatkichlari hisobi

11. Ko'cha yoritkichlari tizimi – shaharlarda va aholi punktlarida yo'llar, piyodalar yo'laklari, jamoat joylari va boshqa hududlarni kechasi yoritish uchun o'rnatilgan muhandislik inshootlari majmuasidir.

Yoritish tarmog'i bilan ta'minlangan ko'chalar uzunligi, yoritish uskunolari soni va yoritish uskunalarini quvvati ko'cha yoritkichlari tizimi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

12. Yoritish tarmog'i bilan ta'minlangan ko'chalar uzunligi – bu ko'cha yoritgichlari o'rnatilgan va ishlayotgan yo'llarning umumiy uzunligini ifodalovchi muhim infratuzilma ko'rsatkichi hisoblanadi.

13. Yoritish uskunolari soni – bu hududlarida ko'cha va yo'llarni yoritish uchun o'rnatilgan yoritgichlarning umumiy miqdorini ifodalaydi hamda bunda svetodiodli (LED) yoritgichlar, gaz-razryadli yoritgichlar (natriy chiroqlari, simob bug'li lampalar va metalgalogen yoritgichlar) va quyosh panelli (solar) yoritgichlar soni hisobga olinadi.

14. Hududidagi yoritish uskunalarining quvvati, ularning mavjud sonini har birining quvvatiga ko'paytirish orqali hisoblanadi va quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Y_w = N \times P$$

Bu yerda:

Y_w – yoritish uskunasi quvvati;

N – yoritish uskunasi mavjud sonini;

P – yoritish uskunasining har birini quvvati.

4-§. Hududlarni mexanizatsiya vositalari bilan tozalash

15. Hududlarni mexanizatsiya vositalari bilan tozalash – shahar va aholi punktlarining yo'llari, piyodalar yo'laklari, maydonlari va boshqa jamoat joylarini maxsus texnika yordamida axlat, chang va qordan tozalash jarayonidir.

Ushbu yo'nalishda xo'jalikda mashina kunlar soni, ishda mashina kunlar soni, mexanizatsiya usulida tozalangan maydon va maishiy chiqindilarni zararsizlantirish joylari maydoni ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

16. Xo'jalikda mashina kunlar soni – inventer hisobotda bo'lgan mashinalar sonini dam olish va bayram kunlarini qo'shgan holda hisobot yilidagi taqvimning har bir kunini yig'indisi orqali aniqlanadi. Agar hisobot yilida mashinalar soni o'zgarmasa, xo'jalikdagi mashina kuni yil boshida hisobda bo'lgan mashinalar sonini taqvim kunlari soniga ko'paytmasi orqali aniqlanadi.

17. Korxona va tashkilotda ishda mashina kunlar soni hisobi ushbu korxona va tashkilotlardagi mashinalarni chiqib ketish, kirib kelish va texnik holatini idoraviy hisob oluvchi nozimxona jurnali orqali yoki hisobot yilidagi har bir taqvim kuni yo'l varaqasi orqali aniqlanadi.

18. Mexanizatsiya usulida tozalangan maydon – maxsus texnik vositalar (ko'cha supurish mashinalari, vakuumli changyutkichlar, suv sepish mashinalari, qor tozalash texnikasi va boshqalar) yordamida axlat, chang, qor yoki boshqa iflosliklardan tozalangan hududlar maydoni.

19. Maishiy chiqindilarni zararsizlantirish joylari maydoni – chiqindilarni yo'q qilish, qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish uchun ajratilgan maxsus hududning umumiy maydonini ifodalaydi.

5-§. Hududlarda chiqarilgan chiqindilar hisobi

20. Hududlarda chiqarilgan chiqindilar hisobi – bu maishiy, qurilish, sanoat va boshqa turdagi chiqindilarning yig'ish, o'lchash va tahlil qilish jarayonlaridir. Bunda, yil davomida chiqarilgan (turlari bo'yicha) chiqindilar, chiqindi to'plash shoxobchalari, chiqindi to'plash modullari, chiqindi konteynerlar va chiqindi tashlash qutilari ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

21. Qattiq maishiy chiqindilar – jismoniy shaxslarning hayoti va faoliyati hamda yuridik shaxslarning faoliyati natijasida hosil bo'luvchi organik va noorganik chiqindilar, shuningdek, ularning hududida va obodonlashtirish obyektlaridagi tabiiy jarayonlar natijasida hosil bo'luvchi chiqindilar (oziq-ovqat va o'simlik chiqindilari, to'qimachilik mahsulotlari, o'rash-joylash (qadoqlash) materiallari, shisha, rezina, qog'oz, plastmassa, yog'och chiqindilari, o'zining foydalanish xususiyatlarini yo'qotgan uy-ro'zg'or buyumlari, supurindi, shuningdek, qattiq yoqilg'ida ishlovchi maishiy pechkalar va isitish bug'qozonlaridan foydalanish natijasida hosil bo'luvchi chiqindilar).

22. Suyuq maishiy chiqindilar – jismoniy shaxslarning hayoti va faoliyati hamda yuridik shaxslarning faoliyati natijasida hosil bo'luvchi chiqindilar (oqova suvlar, chiqindi to'kiladigan o'ralar va septiklarda yig'ilgan turli xil suyuq chiqindilar, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan yuvindi chiqindilari, markazlashmagan kanalizatsiyaning najas chiqindilari).

23. Qurilish chiqindilari – bino va inshootlar, shu jumladan yo‘llar va muhandislik kommunikatsiyalarini hamda ishlab chiqarish obyektlarini qurish, rekonstruksiya va (yoki) montaj qilish, ta‘mirlash, obodonlashtirish hamda buzish ishlarini amalga oshirish natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar.

24. Chiqindi to‘plash shoxobchalari, chiqindi to‘plash modullari, shiqindi konteynerlar va chiqindi tashlash qutilari chiqindilarni to‘plovchi vositalar bo‘lib hisoblanadi hamda ularing soni birlikda yuritiladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

25. Ushbu uslubiy nimoni ishlab chiqishda Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, Germaniya va Rossiya davlatlari tajribalaridan foydalanildi.

26. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq bayon etilgan.

27. Ushbu uslubiy nizom shahar joylarini obodonlashtirishning asosiy statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu sohada ma‘muriy qarorlar qabul qilishda, tergov va nazoratda, sud muhokamasida, ayrim huquqiy bahs-munozaralarni hal etish va hokazolarda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” (1998-yil 1-iyul)
2. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (1992- yil 9- dekabr).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024- son Farmoni (2017- yil 21- aprel).
4. Yevropa iqtisodiy komissiyasining (BMTYeIK) “Ekologik ko‘rsatkichlar va ularga asoslangan baholash hisobotlari” ma‘ruzasi (2007- yil 4- avgust)
<https://unece.org/fr/publications/>

Методологическое положение о формировании основных показателей благоустройства городских территорий

Методологическое положение (далее – Положение) определяет механизм формирования основных показателей, позволяющий вести статистический учёт работ по озеленению, дорожному хозяйству, уличному освещению и уборке с использованием механизированных средств на городских территориях.

При разработке данного Положения были использованы нормативно-правовые акты Республики Узбекистан в сфере охраны окружающей среды, а также международный опыт Организации Объединённых Наций и стран СНГ.

Это положение разработано на основе требований «Типовой модели процессов производства статистических данных» (The Generic Statistical Business Process Model, далее – GSBPM).

В Положении представлены основные показатели благоустройства городских территорий Республики Узбекистан.

Правовой основой для разработки данных показателей являются Закон Республики Узбекистан «О государственной статистике» и «Статистическая программа», ежегодно утверждаемая постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан.

Глава 1. Общие положения

1. Процессы интеграции, классификации и кодирования данных, формирования новых показателей, обобщения и завершения обработки формируются в рамках этапов GSBPM.

2. В Положении используются следующие основные термины:

городские населенные пункты – это территории, расположенные в пределах городской черты, т.е. населённые пункты, официально обозначенные как города республиканского или районного подчинения в соответствии с нормативными документами;

благоустройство – совокупность работ по инженерной подготовке территории, устройству дорог, осуществлению мероприятий по расчистке, осушению, озеленению и ирригации территории, улучшению микроклимата, охране от загрязнения воздушного бассейна, открытых водоемов и почвы, санитарной очистке, снижению уровня шума, осуществляемых в целях приведения той или иной территории в состояние, пригодное для строительства и нормального использования по назначению, создания здоровых, удобных и культурных условий жизни населения;

объекты благоустройства – улицы, переулки, дороги, центральные площади, тротуары, мосты, тоннели, пешеходные, подземные переходы, фонтаны, берега арыков, каналов, рек, озер и других водоемов, объекты, используемые для удовлетворения культурно-бытовых нужд и отдыха населения (парки культуры и отдыха, лесные массивы, сады, бульвары, скверы), наружное освещение, рекламные панно, дорожные указатели, порталы и вывески, дренаж (вертикальный, закрытый и открытый горизонтальный, закрытый коллектор дренажа), сети ирригационных лотков, сети наружного освещения;

количество пунктов сбора отходов — это число специально охраняемых мест, организованных для временного накопления и сортировки твёрдых бытовых и других видов отходов;

модули сбора отходов — системы, постоянно устанавливаемые в городских районах и оснащённые специальными контейнерами для раздельного сбора и накопления отходов;

контейнеры для отходов — специальные ёмкости, предназначенные для временного хранения и транспортировки твёрдых бытовых отходов (ТБО) и других их видов.

Глава 2. Основные показатели благоустройства городских территорий и источники их формирования

3. К основным статистическим показателям благоустройства территорий относятся:

общая площадь городских земель в пределах городской черты;

показатели улично-дорожного хозяйства (длина улиц, тип покрытия, длина дренажной сети);

показатели системы уличного освещения (длина освещаемых улиц, количество и мощность осветительных приборов);

показатели по механизированной уборке территорий;

площадь мест утилизации бытовых отходов;

объём отходов, вывезенных за год.

4. Данные, характеризующие основные показатели развития городов, формируются на основе следующих статистических отчетов и административных данных:

форма **1 kom (shahar) shakli** (годовая) «Отчет о благоустройстве городских населенных пунктов»;

форма **1 kb (kommunal)** (1 kb shakliga ilova) shakli (годовая) «Отчет микрофирм и малых предприятий, осуществляющих централизованный отвод сточных вод, работы по благоустройству и наружному освещению, отпуск воды, теплоэнергию и горячую воду населению и коммунально-бытовые нужды»;

административных данных Агентства по кадастру при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан «сведения о земельных участках и кладбищах».

Глава 3. Основные статистические показатели благоустройства территорий

§1. Учёт земель в пределах городской черты

5. Учет городских земель — это данные о площадях, расположенных в границах города и предназначенных для градостроительной деятельности. В Узбекистане такой учет ведётся на основе данных Агентства по кадастру.

6. Общая площадь озеленённых территорий в пределах городской черты — это общий размер земельных участков, покрытых зелёными насаждениями, расположенных в административных границах города.

7. Длина озеленённых участков улиц, дорог и переулков — это общая протяжённость территорий вдоль улично-дорожной инфраструктуры, засаженных деревьями, кустарниками и другими зелёными элементами.

§2. Учёт улично-дорожного хозяйства

8. Улично-дорожное хозяйство включает проектирование, строительство, содержание, ремонт и эксплуатацию улично-дорожной инфраструктуры.

Показатели включают в себя длину улиц, тип покрытия, длину арычной системы.

9. Длина улиц — это совокупная длина всех типов автодорог, тротуаров и инженерных коммуникаций на территории.

10. Тип покрытия улиц и дорог — это вид материала, уложенного на поверхность дороги, который обеспечивает удобство и безопасность

движения транспортных средств и пешеходов. Тип покрытия определяет качество, прочность и срок эксплуатации дорог.

Участки улиц с твёрдым покрытием – это дорожные поверхности, покрытые прочными и устойчивыми материалами, предназначенные для движения транспорта и пешеходов. Такие покрытия обеспечивают длительный срок службы дорог, комфортное передвижение и безопасность.

Дороги с усовершенствованным покрытием – это дорожные покрытия, построенные с применением современных технологий и рассчитанные на длительный срок службы. Они отличаются прочностью, устойчивостью и комфортом при передвижении.

§3. Учёт системы уличного освещения

11. Система уличного освещения – совокупность инженерных сооружений, обеспечивающих освещение улиц, тротуаров, общественных зон ночью.

Длина улиц, оснащённых осветительной сетью, количество осветительных приборов и их суммарная мощность являются показателями системы уличного освещения.

12. Длина улиц, обеспеченных уличным освещением, является важным показателем инфраструктуры, отражающим общую длину дорог, на которых установлены и работают уличные фонари.

13. Количество осветительного оборудования – представляет собой общее количество светильников, установленных на их территории для освещения улиц и дорог, и учитывает количество светодиодных (LED), газоразрядных (натриевых, ртутных ламп и металлогалогенных ламп) и солнечных панелей (solar).

14. Мощность осветительного оборудования на территории рассчитывается путем умножения имеющегося количества на мощность каждого по формуле:

$$Y_w = N \times P,$$

где

Y_w – мощность осветительного оборудования;

N – количество приборов;

P – мощность каждого из осветительных приборов.

§4. Механизированная уборка территорий

15. Очистка территорий механизированным способом — очистка городских улиц, тротуаров и площадей от мусора, пыли и снега с использованием специальной техники.

В этом направлении учитываются количество машино-дней в хозяйстве, машино-дней в работе, площадь, очищенная механизированным способом, площадь мест утилизации отходов.

16. Количество машино-дней в хозяйстве определяется как произведение суммы всех дней календарного года, с учетом выходных и праздничных дней, на количество машин, указанных в инвентаризационном отчетном году. Если количество машин в отчетном году не изменяется, то машино-дни хозяйства рассчитываются путем умножения числа машин на количество дней в календарном году, исходя из количества машин, зарегистрированных на начало года.

17. Количество машино-дней в работе определяется по путевым листам, журналам учёта или другим внутренним документам с учетом выезда, въезда и технического состояния машины.

18 Площадь, убранная механизированным способом – это территория, очищенная от мусора, пыли, снега или других загрязнений с использованием специальных технических средств (уличные подметальные машины, вакуумные пылесосы, поливомоечные машины, снегоуборочная техника и др.).

19. Площадь мест обезвреживания и утилизации бытовых отходов представляет собой общую площадь специальных территории, отведённых под переработку или утилизации бытовых отходов.

§5. Учет объёма отходов

20. Учёт отходов включает в себя сбор, измерение и анализ всех видов отходов (бытовых, строительных, промышленных). В этих рамках учитываются данные об объёме отходов (по видам), образовавшихся в течение года, пунктах их сбора, модулях сбора отходов, контейнерах и урнах для мусора.

21. Твёрдые бытовые отходы — органические и неорганические отходы, образующиеся в результате жизнедеятельности физических лиц и деятельности юридических лиц, а также отходы, возникающие в результате естественных процессов на их территории и на объектах благоустройства (пищевые и растительные отходы, текстильные изделия, упаковочные материалы, стекло, резина, бумага, пластмасса, древесные отходы, предметы домашнего обихода, утратившие потребительские свойства, уличный мусор, а также отходы, образующиеся в результате эксплуатации бытовых печей и отопительных котлов на твёрдом топливе).

22. Жидкие бытовые отходы – отходы, образующиеся в результате жизнедеятельности физических лиц и деятельности юридических лиц (сточные воды, различные виды жидких отходов, собранных из выгребных ям и септиков, промышленных моечных стоков, фекальных отходов нецентрализованных канализаций).

23. Строительные отходы – это отходы, образующиеся в процессе строительства, реконструкции и (или) монтажа, ремонта, благоустройства, а также сноса зданий и сооружений, включая дороги, инженерные коммуникации и производственные объекты.

24. Пункты сбора отходов, модули сбора отходов, контейнеры и урны для мусора – это средства для сбора отходов, количество которых учитывается в единицах.

Глава 4. Заключительные положения

25. При разработке настоящего Положения был использован международный опыт Казахстана, Великобритании, Германии и России.

26. Этапы разработки, согласования, утверждения и внедрения в практику данного Положения изложены в соответствии с требованиями «Типовой модели процессов производства статистических данных» (The Generic Statistical Business Process Model)

27. Настоящее Положение предназначено для использования статистическими органами с целью формирования и расчёта основных показателей благоустройства городских населённых пунктов. Полученные сведения не предназначены для решения судебно-правовых споров, осуществления государственных закупок, принятия решений о торговых сделках и иных целей.

Список использованной литературы

1. Земельный кодекс Республики Узбекистан (01.07.1998 г.) <https://lex.uz/ru/>
2. Закон Республики Узбекистан «Об охране природы» (29.01.1993 г.) <https://lex.uz/ru/>
3. Указ Президента Республики Узбекистана №УП-5024 «О совершенствовании системы государственного управления в сфере экологии и охраны окружающей среды» (22.04.2017 г.) <https://lex.uz/ru/>
4. Доклад ЕЭК ООН: «Экологические показатели и отчёты на их основе» (04.08.2007 г.) <https://unece.org/fr/publications>